



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KORRUPTSIYAGA QARSHI KURASHISH (TA'LIM TIZIMI MISOLIDA)

Talantbek Madumarov

Andijon davlat universiteti.

Ijtimoiy-iqtisodiyot fakulteti dekani,
yuridik fanlari doktori, professor.

G'ulomjonov Odiljon Raximjon o'g'li

O'zbekiston Milliy Universiteti.

Davlat va fuqarolik jamiyati institutlari boshqaruvi
yo'nalishi 1-kurs magistranti.

“Korruptsiya avj olgan davlat, go'yo ichidan
yemirilgan mo'rt daraxtga o'xshab qoladi.

SHak shubha yo'qki, u birinchi jiddiy
sinovga duch kelishidayoq ag'dariladi”.

Teodor Drayzer

Ta'limdagi korruptsiya haqida gapirilganda, ming afsuski, bunga qarshi qancha kurashilgani sari ko'payib bormoqda. Bunga birgina misol tariqasida **2022 yil 20 dekabr** Prezidentimiz SHavkat Mirziyoyev o'zining Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida boshqa sohalardan ko'ra ta'lim tizimiga ko'proq e'tibor qaratdi. Ta'lim sifati nima bo'ladi degan savol o'ylantirish kerak, son emas sifatga ishlash kerak, oliy ta'limga qabul jarayonida korruptsiya yo'q bo'ldi, lekin uni ichidagi korruptsiya davom etmoqda. Deputatlar senatorlardan fikr so'raldi. Bu ishni qilayotganlar ham o'zini ichidagi odamlar ekanligidan Muxtaram Prezidentimiz jonkuyib gapirishi bu - Oliy ta'lim uchun isnod, buning uchun 10 tagacha rektorlarni ishdan olish kerakligini aytib o'tdi. Bunga sabab esa talabalarning darsga kelmasdan baholarini qo'yilishi, darsga kelmasdan imtihonlarga qatnashishi kuzatilmoqda, buni talabalarning o'zi aytishi esa juda katta fojea ekanligini eslatib o'tmoqda. Kimdan o'rnak olyapmiz. Yangi O'zbekistonda qayerda yozilgan bunday xolatlarga yo'l qo'yish. Har bir Oliy ta'lim muassasasi korruptsiyaga qarshi o'zi ichida kurash olib bormas ekan natija bo'lmaydi. 41 ta Oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy va



akademik mustaqillik berildi. Bularni ichida korruptsiyaga qarshi kurashadigan kompleks nazorat bo'limlari ish boshlagani ta'kidlab o'tildi⁶⁴.

Korruptsiyaga qarshi kurashishda davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan magistraturaga va Oliy ta'limdan keyingi ta'limga kirish imtihonlarida shaffoflikni ta'minlash maqsadida ingliz tili bo'yicha sertifikat asosida kirishni taklifi ilgari surilishi va buni amaliyotda qo'llanishi hisobiga korruptsion xolatlarning bu sohadagi qismiga barham berildi.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, Qadimgi yunon faylasufi Aristotel shunday degan edi: "Har qanday davlat tuzumida eng muhimi - bu qonunlar va tartib-qoidalar vositasida ishni shunday tashkil etish kerakki, mansabdor shaxslar qing'ir yo'l bilan boylik orttira olmasin".⁶⁵ Hozirgi kunda dunyo miqyosida hal etilishi lozim bo'lgan eng birlamchi masalalardan biri korruptsiya muammosidir. Korruptsiya – jahondagi har qanday davlatda fuqarolarning tinchligi va xotirjamligi, demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazuvchi, inson huquqlari buzilishiga olib keluvchi, iqtisodiy bozor munosabatlariga to'sqinlik qiladigan o'ta xavfli illatlardan biridir. Ya'ni, jamiyatda qonun ustuvorligi ta'minlanmas ekan, davlatning iqtisodiy, siyosiy salohiyati zaiflashadi, fuqarolarning huquq va erkinliklari kamsitiladi.

Korruptsiya va uni vujudga keltiruvchi sabablar o'rtasida ikki tomonlama aloqa mavjud. Bundan xulosa shuki, birinchidan, korruptsiyani faqat uni vujudga keltiruvchi sabablar va shart-sharoitlarni yechish yo'li bilan kamaytirish hamda cheklash mumkin; ikkinchidan, bu muammolarni echishda korruptsiyaga qarshi barcha yo'nalishlarda qat'iy va murosasiz kurash olib borish samara beradi.

Barchamizga ma'lumki, so'nggi paytlarda korruptsiya keng ildiz otib borayotgan salbiy illatlardan biridir. Korruptsiyaga qarshi nafaqat sud va huquqni muhofaza qilish organlari, balki har birimiz bir tan-u bir jon bo'lib kurashsakgina ijobiy natijalarga erishishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyev 2020-yil 24-yanvar kuni Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida ham, "Korruptsiyaga qarshi kurashishda aholining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalb qilinmas ekan,

⁶⁴ Xabar.uz.

⁶⁵ Tulenov J. "Jamiyat falsafasi" -Oltinchi bo'lim. - T., 2001 yil, 31-40-betlar.



jamiyatimizning barcha a'zolari, ta'bir joiz bo'lsa, **“halollik vaktsinasi”** bilan emlanmas ekan, o'z oldimizga qo'ygan yuksak marralarga erisha olmaymiz. Biz korruptsiyaning oqibatlarini bilan kurashishdan uning barvaqt oldini olishga o'tishimiz kerak.”⁶⁶ – deya bejiz ta'kidlamagan edi. SHu narsani alohida ta'kidlash kerakki, korruptsiyaning oldini olishga qaratilgan institutsional mexanizmlarni isloh qilishda Yurtboshimiz tomonidan 2017-yil 7-fevralda e'lon qilingan **“2017-2021 yillarda O'zbekistonni yanada rivojlantirishga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasi”** muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Korruptsiya o'zi nima? **Korruptsiya bu – shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishi.**⁶⁷ Korruptsiya faoliyati xufyona iqtisodiyotning asosiy turlaridan biridir.

Yuqoridagi ta'riflardan ko'rinib turibdiki, korruptsiya har qanday davlat va jamiyatning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy putur yetkazadi, davlatning konstitutsiyaviy asoslarini va qonun ustuvorligini zaiflashtiradi, pirovardida inson huquq va erkinliklarining poymol bo'lishiga olib keladi. Ushbu illatga qarshi kurashishni jahon talablari asosida tashkil etish maqsadida, 2008-yilda mamlakatimiz Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2003-yil 13-oktyabrdagi “Korruptsiyaga qarshi kurashish Konvensiyasi”ni ratifikatsiya qildi, shuningdek, “Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Korruptsiyaga qarshi kurashish konvensiyasi”ga O'zbekiston Respublikasi qo'shilishi to'g'risida”gi Qonun qabul qilindi. Korruptsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan chora-tadbirlarning mantiqiy davomi sifatida 2017-yil 3-yanvar kuni **“Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi** O'zbekiston Respublikasi Qonuni hamda 2019-yil 27-may kuni **“O'zbekistonda korruptsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida”gi** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni qabul qilindi va farmon asosida 2019-2020 yillarda korruptsiyaga qarshi kurashish davlat dasturi qabul qilindi.

Ushbu o'quv qo'llanma hozirgi kunda mamlakatimizda korruptsiyaga qarshi kurashishda jahon mamlakatlari tajribasini o'rganish va www.transparency.org indeksi

⁶⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvar kuni Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasidan

⁶⁷ «Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi qonunning 3-moddasidan. 2017-yil 3-yanvar



bo'yicha yuqori o'ntalikda turuvchi davlatlarning korrupsiyaga qarshi kurash sohasida qonunchiligini tadqiq etish masalalariga bag'ishlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xabar.uz.
2. Tulenov J. "Jamiyat falsafasi" –Oltinchi bo'lim. – T., 2001 yil, 31-40-betlar.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvar kuni Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasidan
4. *«Korrupsiyaga qarshi kurishish to'g'risida»gi qonunning 3-moddasidan. 2017-yil 3-yanvar.*